

## O‘RXUN YOZUVI VA UNING YODGORLIKLARI HAQIDA

Abdusalimova Shodiya

University Of Business And Science 3-Bosqich Talabasi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.20438587>

**Annotatsiya.** Ushbu maqola O‘rxun yozuvi va uning yodgorliklari haqida.

**Kalit so‘zlar.** O‘rxun yozuvi, yodgorliklar, Kultegin, Bilga Xoqon, bitiktosh, To‘nyuquq, Talas vodiysi.

**Аннотация.** Данная статья посвящена орхонской письменности и её памятникам.

**Ключевые слова.** Орхонская письменность, памятники, Культегин, Бильге-каган, битиктош, Тоньюкук, Таласская долина.

**Abstract.** This article is about the Orkhon script and its monuments.

**Keywords.** Orkhon script, monuments, Kultegin, Bilge Khagan, bitiktosh, Tonyukuk, Talas Valley.

### KIRISH

O‘rxun-Enasoy yodgorliklarining topilishi va o‘rganilishi XVIII asrdan boshlanadi. Rus xizmatchisi Remezov bu haqida dastlabki xabarni bergan. Shved zobiti Iogann Strallenberg va olim Messersmidt yodgorliklarni Yevropa ilm ahliga ilk bor taqdim qilgan edilar.

O‘rxun-Enasoy bitiklari V–VII asrlarda qadimgi turkiy tilda va yozuvda yaratilgan tarixiy yodgorliklar sanaladi. Bitiktoshlar Mo‘g‘ulistondagi O‘rxun hamda Janubiy Sibirdagi Enasoy daryolari sohillarida topilgani uchun shunday nomlangan. Mo‘g‘ulistondan Shimoliy dengizlargacha, Uraldan Saxalinga qadar davom etgan hududda shu yozuvdagi yodnomalar uchraydi. Shimoliy Kavkazda XV asrda ham O‘rxun yozuvidan foydalanilgan. O‘zbekiston hududida Farg‘ona, Surxondaryo va boshqa joylardan yigirmadan ortiq turkiy-run yozuvi yodgorliklari topilgan.

Yenisey bitiklari marsiya va madhiya janrlarining qadimgi turk adabiyotidagi ildizlari haqida tasavvur beradi. Bitiktosh ikki qismdan iborat bo‘lib, unda Vatan manfaati yo‘lida xizmat qilish, mamlakat mustahkam va osoyishta bo‘lishi uchun kurash maqsad ekani aytiladi. Asarda Tabg‘ach, Tibet, Sug‘d, Qirg‘iz kabi joy nomlari tilga olingan. O‘rxun bitiklari, Kultegin, Bilga Xoqon, To‘nyuquq, Irq bitigi va boshqa bitiktosh hamda yodnomalar adabiy manba sifatida qahramonlik qissa va dostonlariga mazmunan yaqin turadi.

Bitiktoshlar XIX asr oxirlarida topilib, Vilgelm Tomson tomonidan o‘qilgan va ilmiy muomalaga kiritilgan. O‘tgan yillar davomida umumturkologiya qadimgi turkiy yodgorliklar sohasida yangi yutuqlarni qo‘lga kiritdi, yangi yozuv yodgorliklari topildi va topilmoqda. Ilgari fanga ma‘lum bo‘lgan yozma yodgorliklar qadimgi turkiy tilning mahsuli sifatida ilmiy istifodaga kiritildi.


Bu o‘rinda “Oltin yorug‘” (IX asr) sutrasi, moniylik va buddaviylik oqimidagi yozma yodgorliklarning qadimgi turkiydan hozirgi o‘zbek tiliga qilingan tabdili nashrlarini eslash kifoya. Bulardan tashqari, O‘zbekiston hududidan miloddan oldingi davrlarga va milodiy VII–VIII asrlarga oid turkiy-run yozuvidagi yodgorliklar topildi va tahlil etildi [8: 123]. Shu bilan birga, Janubiy Sibir va O‘zbekiston tuprog‘idan topilib, ilgari tahlil etilgan turkiy-run yozuvlari qaytadan deshifrovka qilindi. Qadimgi turkiy tilning manbalaridan Kulteginga bag‘ishlangan yodgorlikning qiyosiy nashri va til xususiyatlariga bag‘ishlangan asar ham aynan O‘zbekistonda yaratildi [1: 45].

### ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR

O'rxun-Enasoy yodgorliklarini o'rganishga A. Fitrat, O. Sharafiddinov, N. Mallayev, A. Qayumov, A. Rustamov, G. Abdurahmonov, E. Umarov, T. Salimov, B. To'xliyev, N. Rahmonov, Q. Sodiqov kabi o'zbek olimlari ham o'zlarining munosib hissalarini qo'shganlar. Jumladan, bu yodgorlikning topilish tarixi N. Mallayevning “O'zbek adabiyoti tarixi”, B. To'xliyevning “O'zbek adabiyoti”, A. Qayumovning “Qadimiyat obidalari” asarlarida yoritilgan.

H. Zarif, M. Saidov, B. Sarimsoqov, M. Jo'rayev, S. Turdimov, A. Musaqulov, G. Akramov, J. Eshonqulovlar o'z ishlarida bu borada u yoki bu darajada to'xtalib o'tganlar. Lekin bu umumturkiy ma'naviy merosimizni o'rganishda Qosimjon Sodiqov va Nasimxon Rahmonov xizmatlari beqiyos [2: 136]. Tadqiqot jarayonida ilmiy bilishning mantiqiylik, tarixiylik, izchillik va obyektivlik usullaridan keng foydalanildi.

### **O'RXUN YOZUVI VA BITIKTOSHLARNING AHAMIYATI**



Bitiktoshlar AQSH, Polsha, Vengriya, Finlandiya va Turkiyada ham o'rganilgan. O'zbekistonda A. Qayumov, N. Rahmonov, A. Fitrat va boshqa olimlar yodgorliklardan namunalarni tadqiq etish bo'yicha ilmiy ishlar olib borganlar. O'rxun yodgorliklarining eng asosiy qismini tashkil etadigan yozuvlar qora toshlarga yoki metallarga o'yib yozilgan hamda harfli tizimga asoslangan.

**1-rasm.** Kul Tigin bitiktoshi. O'rxon muzeyi, Xarhorin, Mo'g'uliston.

O'rxun yozuvi runik yozuv guruhiga mansub. Har bir belgi ma'lum bir tovush yoki so'z ma'nosini ifodalaydi. Yozuvlar ko'pincha hukmdorlar, ularning yutuqlari, urush va tinchlik o'rnatish jarayonlari haqida ma'lumot beradi. Ular xalqning ijtimoiy va madaniy hayoti haqida ham hikoya qiladi.

#### **KULTEGIN YOZUVI**

Kultegin yozuvi VIII asrga oid O'rxun yodgorliklarining eng mashhur namunalaridan biridir. Bu yozuv 732-yilda o'yilgan bo'lib, Kultegin nomli turkiy qahramon va davlat arbobi haqida ma'lumot beradi. Unda Kulteginning hayoti, jangovar yutuqlari, qahramonliklari va davlat xizmatidagi roli haqida hikoya qilinadi.

#### **BILGA XOQON BITIKTOSHI**

Bilga Xoqon bitiktoshi VIII asrga oid muhim yodgorlik bo'lib, ilk turkiy davlatlar haqida ma'lumot beradi. Bu yozuvlar Go'kturk xoqonligi davrida, xususan, Bilga Xoqon va uning ukasi

Kultegin davrida yaratilgan. Yozuvning asosiy maqsadi Bilga Xoqonning erishgan yutuqlari va harbiy muvaffaqiyatlarini xotirlash hamda sharaflashdan iborat.

### **BILGA XOQON BITIGIDAGI HAYVON OBRAZI**

Bo’ri turk xoqonligining harbiy qudrati va jangovar ruhining asosiy timsoli sifatida tasvirlangan. Matnlarda xoqon askarlari bo’riga, dushmanlar esa qo’yga o’xshatilgan: “Tangri kuch bergani uchun otam xoqonning askarlari bo’ri kabi, dushmanlari esa qo’y kabi edi”. Bu qiyos turk jangchilarining shiddati va g’alabasini ifodalaydi.

### **BILGA XOQON BITIGIDAGI SOF TURKIY SO‘ZLAR**

| <b>So‘z</b> | <b>Ma’nosi</b> |
|-------------|----------------|
| Xoqon       | hukmdor        |
| Tigin       | shahzoda       |
| Shad        | yuqori unvon   |
| Bey         | boshliq        |
| Bitigchi    | kotib          |
| Bodun       | xalq, millat   |
| Tengri      | xudo           |
| Udu         | keyin          |
| O’zdum      | o’tdim         |
| Yog’        | motam          |

### **XULOSA**

Xulosa qilib aytganda, O’rxun-Enasoy yodgorliklari qadimgi turkiy yozuv, davlat boshqaruvi, harbiy an’analar, xalqning ijtimoiy-madaniy hayoti va adabiy tafakkurini o’rganishda muhim manba hisoblanadi. Bu bitiktoshlar nafaqat tarixiy ma’lumot beradi, balki turkiy xalqlarning ma’naviy merosi, vatanparvarlik g’oyasi va qahramonlik ruhini ham aks ettiradi.

### **Adabiyotlar, References, Литературы:**

1. Rahmonov N., B. Matboboyev. O’zbekistonning ko’hna turkiy-run yozuvlari. Toshkent: “Fan”, 2006.
2. Soatova G. “O’zbekistonda O’rxun-Enasoy yodgorliklari tadqiqi”. O’zbek tili va adabiyoti jurnali, 2020-yil, 6-son.
3. Sodiqov Q. Turkiy yozma yodgorliklar tili: adabiy tilning yuzaga kelishi va tiklanishi. Toshkent: Sharqshunoslik instituti, 2006.
4. Aydarov G. Bilga Xoqon O’rxun yodgorligi tili. Olmaota, 1966.
5. Klyashtorniy S. G. Qadimgi turkiy runik yodgorliklar O’rta Osiyo tarixi manbai sifatida. Moskva, 1964.
6. Malov S. E. Qadimgi turkiy yozuv yodgorliklari. Moskva, 1951.
7. Malov S. E. Turklarning Yenisey yozuvi. Moskva, 1952.
8. Rahmonov N. Farg’onaning yangi topilmalari. O’sh-3000, 3-jild. Bishkek, 2000.